XALQ DEPUTATLARI YANGIARIQ TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

Yangiariq tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 74-uy, tuman kengashlar uyi telefon: (62)385-42-36, (62) 385-53-36

2024 - yil 15 - fevral VI-103-29-12-179-K/24 Yangiariq tuman hokimligi

Tumandagi davlat reyestriga kirtilmagan 12 ta qabriston nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlariga asosan, tumandagi davlat reyestriga kiritilmagan 12 ta qabriston nomlarini tasdiqlash maqsadida xalq deputatlari Yangiariq tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Yangiariq tumani hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Sh.Azimovning Yangiariq tumanidagi qabristonlarni nomlash borasida amalga oshirgan ishlari to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2023-yil 18-sentyabrdagi 01-14/161-sonli ekspert xulosasiga asosan tumandagi 12 ta davlat reyestrga kiritilmagan qabriston nomlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yangiariq tumani hokimligi huzuridagi Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (A.Rajapov) qayta nomlangan 12 ta qabristonlarga peshlavhalarni bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (D.Sobirova), “Yangiariq ovozi” gazetasi tahririyati (J.Yusupov)lar mazkur qarorni o‘rnatilgan tartibda e’lon qilinishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Yangiariq tumani Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal masalalar va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (Sh.Xudayberganov) hamda tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Sh.Azimov) zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Yangiariq tumani Kengashi raisi

K.Atajanov

Xalq deputatlari Yangiariq tuman
Kengashining
2024-yil 15-fevraldagi
VI-103-29-12-179-K/24-son qaroriga
1-ilova

Yangiariq tumanida qayta nomlanayotgan qabristonlar

RO‘YXATI

№	Geografik obyekt turi	Joylashgan manzili	Geografik obyekt nomi	Izoh
1	Qabriston	Angiariq mahallasi	“Gul Xo‘jabobo”	Ushbu qabristonning nomlanishi bo‘yicha aniq ma’lumotlar yo‘q, mahalliy aholining aytishicha bu ma’lum bir shaxsning emas balki qadimgi o‘g‘uz shevasiga oid “Gul” so‘zi “burchakdagi”, “chekkadagi” ma’nolarni anglatib, “chekkadagi qabriston” ko‘rinishida talqin etilib, bugungi kungacha saqlanib qolganligi aytiladi.
2	Qabriston	Killavut mahallasi	“G‘oyib ota”	Shayx Muxtor Valiyning bir manbada og‘a inisi bir manbada esa shogirdi deb atalgan. Og‘a inisi bo‘lib kelgan jumlasida ikki qo‘chqorning boshi bir qozonda qaynamaydi deb kabutarga aylanib uchib ketgan deyiladi, bir jumlasida esa ya’ni shogirdi bo‘lib kelgan jumlasida shogirdiga bir ish buyurgan u ishni ko‘nglidagidan yaxshi qilgani uchun “endi siz ham ustozsiz” degandek ma’noda kabutarga aylanib uchib ketgan shu uchun o‘tishida namoz vaqti bo‘lganligi uchun Killavut mahallasida peshin namozini o‘qib “G‘oyib ota” qabristonida biroz dam olib yana kabutarga aylanib uchib ketgan. Asli ismi Sulton xo‘bbi degan nomlari bo‘lgan
3	Qabriston	Kattabog‘ mahallasi	“Musofir ota” bolalar qabristoni	Aniq ma’lumotlar yo‘q. Rivoyatlarga qaraganda XX asr o‘rtalarida, II jahon urushidan keyin ushbu hududga bir necha grek millati vakillari ko‘chib kelishgan va ular o‘zlarining iqlim o‘zgarishi va shunga o‘xshash turli xil kasalliklardan vafot etgan farzandlarini dafn etish uchun qabriston tashkil etishgan. Aynan shundan kelib chiqib shu yerlik aholi orasida bu qabriston “Musofir ota” deb atalgan. Shuningdek, hozirgi kunda ushbu qabriston mahalliy aholi orasida “Norasta bobo” nomi bilan ham atalib, u yerga shu yer aholisining barvaqt vafot etgan farzandlari ham dafn etilgan.

4	Qabriston	Vakillar mahallasi	“Egizakbobo”	Ushbu qabristonning qoq markazidan mahalliy aholi muntazam qatnaydigan yo‘l o‘tgan va qabristonning ikki tarafi ham bir-biriga juda o‘xshashligi tufayli shu yerlik aholi tomonidan aynan shu nom bilan atalib kelmoqda.
5	Qabriston	Do‘stlik mahallasi	“Shayx Abdullaiy Mavhumbobo”	Shayx Muxtor Valiy hazratlarining avlodidan bo‘lib, shu hududda yashab o‘tgan va mazkur qabristonga dastlabki dafn qilingan, hurmatga sazovor inson bo‘lganligi sababli qabriston Shayx Abdullaiy Mavhum nomi bilan yuritilgan.
6	Qabriston	Gulbog‘ mahallasi	“Hojibobo”	(Aslida masjid) shu yerlik mahalliy aholi orasida birinchilardan bo‘lib “Haj” safarini ado atib kelgan va o‘z hisobidan masjid qurdirgan hurmatga sazovor shaxs sharafiga aynan shu nom berilgan.
7	Qabriston	Tagan mahallasi	“Mulla Toxirbobo”	Aniq ma’lumotlar yo‘q. Mahalliy aholining aytishicha shu hududda yashab mehnat qilgan (hozirda ham avlodlari ushbu hududda yashab kelmoqda) va xalq orasida hurmat qozongan shaxs bo‘lganligi tufayli vafot etganidan so‘ng uning sharafiga o‘zi dafn etilgan qabristonga nomi berilgan.
8	Qabriston	Soburzon mahallasi	“Ivoqlar”	Mahalliy aholining aytishiga ko‘ra, qadimda ushbu hududda yashagan qavmning nomiga atab qo‘yilgan bo‘lib, tuman hududidagi eng qadimiy qabristonlardan biri hisoblanadi.
9	Qabriston	Qo‘ng‘irot mahallasi	“Nazar ota”	Aniq ma’lumotlar yo‘q. Mahalliy aholining aytishicha shu hududda yashab mehnat qilgan va xalq orasida hurmat qozongan shaxs bo‘lganligi tufayli vafot etganidan so‘ng uning sharafiga o‘zi dafn etilgan qabristonga nomi berilgan. Shuningdek, el nazarida yurganligi uchun ham aynan “Nazar ota” deb atalganligi rivoyat qilinadi.
10	Qabriston	Soburzon mahallasi	“Loplar”	Mahalliy aholining aytishiga ko‘ra, qadimda ushbu hududda yashagan qavmning nomiga atab qo‘yilgan bo‘lib, tuman hududidagi eng qadimiy qabristonlardan biri hisoblanadi.
11	Qabriston	Achchiqquyi mahallasi	“Chiyalibobo”	(Aslida shevaga asosan “Chayali bobo” Xorazm shevasida “qum” so‘zi “chaya” ko‘rinishida aytiladi). Qabriston joylashgan hudud qumlik o‘rtasida joylashganligi sababli mahalliy aholi orasida aynan shu nom bilan ataladi.

12	Qabriston	Qo‘ng‘irot mahallasi	“Emyanlibobo”	Mahalliy aholining taxminlariga ko‘ra, Gulobod qishlog‘ining chekka qismidagi kichik qabriston bo‘lib, keksa avlod vakillari bu yerga 1 nafar onasi hatto emizishga ulgurmagan norasiyda go‘dak dafn etilganligi va keyinchalik atrofi qabristonga aylantirilganligi sababli aynan shu nom bilan atalishini bildirishadi.